

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

**QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK,
CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK
VA TARJIMASHUNOSLIK**

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

**COMPARATIVE LITERATURE STUDIES,
CONTRASTIVE LINGUISTICS AND
TRANSLATION STUDIES**

2025 Vol. 3 (3)

**www.tsuull.uz
www.uzlctscls.tsuull.uz**

Rustamjon Jabborov

Usmoniylar davrida Alisher Navoiy ijodining tarqalishi126

Ruxsana Iftixar

Markaziy osiyo merosi va boburiy ayollarning kiyinish madaniyati136

Ghalib Zeyad

Hind-o'zbek sufiy ta'limoti va adabiy aloqalar: O'rta asrlardan zamonaviy davrgacha bo'lgan istiqbollar157

Maftuna Norqulova

“Quroq” qissasi semantikasining biografik mohiyati haqida164

Normatov Rixsimurod

“Odam bo'lish qiyin” va “Amerika fojiasi” romanlarida muhabbat mavzusi173

“Quroq” qissasi semantikasining biografik mohiyati haqida

Maftuna Norqulova¹

Abstrakt

Mazkur maqolada adib Ahmad A'zamning “Quroq” qissasi avtobiografik jihatdan tahlil qilingan. Qissada muallifning bolalik xotiralari, qishloq hayotining og'ir mehnat sharoitlari va bola qalbida kechgan iztiroblar badiiy tarzda yoritilganligi, shuningdek, eshak obrazi, boshmoq detali, hashar sahnasi kabilar avtobiografik xotira bilan bog'langanligi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *avtobiografik qissa, syujet, obraz, detal, uslub, obraz.*

Kirish

Dunyo adabiyoti durdonalari qatoridan joy olgan shoh asarlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, yozuvchining tarjimai holi bilan bog'liq holda yoki hayotiy kuzatishlari natijasida yuzaga kelganiga guvohi bo'lamiz. Ayni paytda u oddiy tarjimai hol emas, balki real hayot voqeligidan badiiy asar dunyosiga ko'chgan, badiiylashtirilgan shaklda ifoda etiladi. Bunday asarlar avtobiografik xarakterda bo'lib, roman, qissa, hikoya, xotira yoki badia shakllarida uchraydi, asar qahramoni ko'pincha muallifning o'zi bo'lib, voqealar muallif hayotidan olinadi, ichki kechinmalari ham real tasvirlanadi va yozuvchi uslubida o'ziga xos tarzda badiiy aks ettiriladi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov bu haqda shunday deydi: *“Yozuvchi o'zi bevosita ko'rgan, guvohi bo'lgan voqea-hodisalar, o'zi kuzatgan hayotiy holatlar-u manzaralar, turfa fe'l-xo'lyi odamlar-u ularning o'zaro munosabatlari yozgan asarlarida u yoki bu yo'sinda turli maqsadlar bilan o'z aksini topadi”*[Quronov 2018:462].

O'zbek adabiyotida G'afur G'ulom o'zining “Shum bola” qissasi bilan avtobiografik asar yozish an'anasini ma'lum ma'noda boshlab bergan. “Shum bola” qissasi sof avtobiografik asar bo'lmasada, avtobiografik xarakterdagi qissa ekanligi bilan ahamiyatli. *“G'afur*

¹ *Norqulova Maftuna G'ayrat qizi* – o'qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: norqulovamaftuna@navoiy-uni.uz

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0003-2651-0885>

Iqtibos uchun: Norqulova, M.G. 2025, “Quroq” qissasi semantikasining biografik mohiyati haqida”. *O'zbekiston: til va madaniyat*. 3 (3): 164-172.

Gʻulom A.Naumov bilan qilgan suhbatida deydi: “Oʻz personajim shaʼniga aytgan bunday maqtov gaplar sizga kulguli tuyular, darvoqe men unga oʻzim toʻqib chiqargan qahramon tarzida qaramayman, – yozilgan narsani emas, uning ortidagi narsalarni sevaman: bolaligimni, meni yetishtirgan xalqim xulq-atvorini. Ha-ha, nafsilamrini aytganda, xuddi birov yolgʻiz meni eshitadigan qilib aytib turganidek yozganman...” [Meli 2020:503].

Oybekning “Bolalik” qissasi ham avtobiografik xarakterdagi asar boʻlib, unda oʻtgan asrdagi siyosiy ahvol, qahramonlarning kechinmalari, eski maktab va u yerdagi oʻqitish tizimi haqida soʻz yuritiladi. Qissa bola tilidan hikoya qilinadi. Musavoyning oʻn yillik hayoti bilan birgalikda davr hodisalari bogʻliq holda tasvirlanadi.

Abdulla Qahhorning “Oʻtmishdan ertaklar” qissasi markazida ham muallifning oʻzi turadi. Adib bolalik xotiralarini oʻsha davr til xususiyatlarini saqlagan holda hikoya qilib beradi. Qissada bolalik xotiralarini bilan birgalikda, oʻtgan asr boshlarida millat bolalarining mashaqqatli hayoti haqida ham soʻz yuritiladi.

Nafaqat oʻzbek adabiyoti, balki jahon adabiyotida ham bunday asarlar bisyor boʻlib, Maksim Gorkiyning “Bolalik” asari adibning hayot yoʻli, va u yashagan davrdan xabar beradi. Lev Tolstoyning “Iqrornoma” asari ham avtobiografik xarakterda boʻlib, yozuvchining koʻp yillik ichki kechinmalarini sarhisob qilish, adibning hayot haqiqatini qidirishining ochiq-oydin xronikasi deyish mumkin, shuningdek, Chingiz Aytmatovning “Bolaligim” nomli qissasida muallifning bolaligi, oilasi va xalqi haqida soʻz boradi.

80-yillar adabiyotiga kirib kelgan yozuvchi Ahmad Aʼzam ijodida ham avtobiografik xarakterdagi asarlarni uchratamiz. Jumladan, “Oyning gardishi” hikoyasi, “Quroq” qissasini toʻliq avtobiografik asar deyishimiz mumkin. Ammo adibning boshqa asarlarida ham maʼlum biografik unsurlar uchraydi. Ayniqsa, “Quroq” qissasi xotira-qissa shaklida yozilgan, muallif hozirgi zamonda turib, oʻtmish xotiralarini, bolalik kechinmalarini esga oladi. Baʼzida shirin xotiralardan suyunadi, kun koʻrmay oʻtgan bolaligini eslab kuyunadi.

Adabiyotshunoslik lugʻatida avtobiografik asarga quyidagicha taʼrif berilgan: *“(yun. autos – oʻzim, bios – hayot, grapho – yozaman) – muallifning oʻz hayoti haqida izchil hikoya qilishiga asoslangan adabiy janr. A.a.ni yozuvchining turli munosabat bilan yozilgan avtobiografiyasi (tarjimai hol)dan farqlash lozim. A.a.ni muallif oʻz hayotini qaytadan yashab koʻradi, uni bir butun sifatida idrok etishga intiladi. Yashab oʻtilgan hayotni bir butunlikda idrok etish ehtiyoji tufayli A.a.ni muallifi baʼzan badiiy toʻqimalarga yoʻl qoʻyishi ham*

tabiiy, chunki u hayotini yaxlit estetik mushohada qilarkan, uni ijodiy qayta yaratadi. Shuning uchun A.a.lar aksar hollarda mualliflarning ijodiy yetuklik pallalarida, umrlari nihoyasida yoziladi” [Куронов 2013:5]. Darhaqiqat, Oybekning “Bolalik” qissasi, biz tahliliga kirishgan A.A’zamning “Quroq” qissasi ham adib umrining oxirlarida yozilgan. Qissa adib ijodining eng yetuk davrlarida yozilganligi sababidan ham, unda hayotga, adabiyotga bo’lgan so’nggi xulosalarni uchratamiz. Masalan, adib qissada hayvon insonga emas, inson hayvon xizmatida bo’lib qolgani haqida *“Ot otligini qilmaydi, it itligini unutgan, mushuk odamlarning uyida yashab, sichqon ovlashdan or qiladi, a ishi-ku shu! Ot ishlamaydi, har zamonda bir poygada chopib mazza qiladi, ko’pkariga chiqadi – bo’ldi! Sayisxonalarda ko’k beda-yemni urib, bekor turaveradi, qashlog’ichigacha bor! It egasinikini qo’riqlashi kerak, u esa hatto o’g’riga ham hurishni bilmaydi, lekin uydin joy olgan, suyuq sovunlarda cho’miltirib, junini taroqda taraydilar. Bu qanaqasi! Dangasalarning dangasasi mushuk, ko’ngli tusasa miyovlaydi, odamga o’zini siypatadi, bo’lmasa shu ham yo’q. bekorchiligidan o’zini qayoqqa qo’yishini bilmay, tomlarda daydiydi. E-e, tavba, odam hayvonning xizmatida-ya! Odam-a!- deydi”*[Аъзам A. 2013:33].

Qissada har bir xotira real tasvirlanadi, unda hech qanday to’qimalar, ortiqcha bo’rttirishlar yo’q. Asarning syujet liniyasida bolalik xotiralaridagi tabiiy tasvirlar, ulov mingan bola, qishloq hayoti va undagi odamlarning taqdirlari istifoda etiladi. Agar ijodkor tarixiy haqiqat, real tasvirni o’zi uchun ma’qul bir qolipga solmoqchi bo’lsa, yoki kitobxonga manzur bo’ladigan holga keltirsa, katta xatoga yo’l qo’yan bo’ladi. “Quroq” hech qanday qoliplarga solinmagan, muallif tilidan sodda va ravon uslubda yozilgan. Undagi haqqoniy tasvirlarni o’qigan kitobxon go’yo qahramon bilan u yurgan yo’llardan birga yuradi, u bilan yelkama-yelka mehnat qiladi, u ko’rgan azoblardan iztirob chekadi. Qissa boshqa avtobiografik xarakterdagi asarlardan shu jihati bilan farqlanadi.

“Quroq” qissasini o’qir ekanmiz, muallif kabi voqelik ichida yashaymiz, sababi har bir lavha, detal jonli tasvirlangan. Adabiyotshunos Qozoqboy Yo’ldoshev aytganidek, *“Ijtimoiy tarixdan farq qilaroq, badiiy adabiyot uchun jamiyatning kechmishlaridan ko’ra, alohida odamning boshidan o’tkazganlari muhim sanaladi”* [Йўлдошев 2019:105]. “Quroq” qissasi muallif hayotining o’tmishi va buguni, yaxshi va yomon kunlari, achchiq va shirin xotiralari tasvirlanganligi uchun ham qayta-qayta o’qiladi. Qissani o’qigan kitobxon zerikmaydi, balki uning olamiga sho’ng’ib ketadi. Oltmish

yoshni qoralagan qahramon, shahar hayoti – o‘n-o‘n besh yoshlardagi bola va qishloq hayotiga kontrast qo‘yiladi. Bir voqea boshqa bir voqeani yetaklashga xizmat qiladi. Qissada esga olinadigan qishloq manzaralari, maktab yillari, qo‘shnilar – bular barchasi muallif bolaligi o‘tgan voqeliklar asosida turgani seziladi. Asarda roviy vazifasini muallifni o‘zi bajaradi. Qissa tili jonli, xalqona, og‘zaki nutqqa yaqin, xalq donishmandligini ifodalaydi. “Xo‘-o‘sh, sizga endi bir hangomani aytib bersam...” degan jumlarlar orqali adib o‘quvchini suhbatdoshi sifatida o‘ziga tortadi.

“Quroq” – muallif hayotining parchalaridan tikilgan badiiy dasturxon. Kitobxon u orqali o‘tmish va bugun voqealari bilan galma-galdan tanishib boradi. Adib qissada faqat hikoya qilib bermaydi, balki o‘tmish bilan ruhiy suhbatga kirishadi. Bir qaraganda qissa kulgiga boy tasvirlari bo‘lganligi uchun satirik asardek tuyuladi, lekin har bir xotiraning o‘z iztirobi bor. “Quroq” qissasi orqali muallif o‘z ichki dunyosiga sayohat qiladi. Bu asar adibning hayotidan, bolalik xotiralarini, iztiroblari va o‘ylaridan tikilgan badiiy quroqdir.

Qissada bolalik xotiralarini real fonda tasvir qilinar ekan, adib: *“Olis ortga qarayman: malla sochim oftobda unniqib, qizg‘ish tus olgan; Bulung‘urning zilol chashmalar bilan paxta oqovasi aralash bo‘z suvi, Qipchoqariqning bo‘tanasida cho‘milib, jazillama bilq-bilq tuproqqa ko‘milib yotavergandan, bet sho‘ralab, suyaklar kuyka teri tortilgan tarasha, maktabimiz chorbog‘idan o‘g‘irlangan achchiq olmadan tish qamashib, mujmayib yurganlarim... O‘zimiznikida shovuldek solib, yer bilan bitta bo‘lib yotganini ko‘z oldimga keltirsam, og‘zim suv ochib ketadi, eshak olmani deb Nosir muallimdan kaltak yemasak, ochdan o‘larmidik?”*, – deydi [Аъзам А. 2013:18]. Olma haqidagi ayni epizod adibning “Oyning gardishi” hikoyasida ham uchraydi. Umuman, qissadagi ko‘p voqealar hikoyada ham keltiriladi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, “Oyning gardishi” hikoyasi ham avtobiografik xarakterda bo‘lib, adib uning davomi sifatida “Quroq” qissasini yozgan bo‘lishi mumkin. Hikoyada ham bola otasidan maktab olmasidan o‘g‘irlab yegani uchun dashnom eshitadi.

Qissani o‘qigan har bir kitobxon, qishloq ko‘chalarida eshak mingan bola singari harakatlanadi. U yashagan olamda yashaydi. Uni mushtdek boshi bilan qilgan mehnati-yu, qalbidagi kechinmalarini his qiladi. *“Mehnatning tagidan o‘rmalab, hech bir mashaqqatga bo‘yin bermay, yoruqqa intilavergan bolalik... uning yukini yelkalamagan qishloq bolasi yo‘q”*, – deydi adib [Аъзам А. 2013:20]. Qishloq bolalarining hayoti mol haydash, o‘t o‘rish, paxta chopiq, yer

ag'darish, somon tashish, ariq tozalash, g'isht qo'yish, pichan ortish kabi og'ir mehnat bilan yo'g'rilgan, bolalik ham bu mehnatga qo'shilib ketgan. *"Oldimda ikki bog' o't, kuch yetmagandan ich qaltiraydi, chora yo'q, sira yo'q, butun dunyo chorasiz. Bu dunyo ko'zimda alam bo'lib ko'karadi. He, deb so'kinib yana o'rnimdan turaman, chog'lanib borib kichkina gavdamdagi bor kuchni qo'lim bilan belimga berib, ikki bog' tutash ipga tarmashaman... Quvvat deb atayin chaqirgandek dodlayman. Xudoyim o'zimda yo'q olg'ovni qaydandir olib beradi shu payti! Eshak bir gandaraklaydi, lekin joyida turadi, yurib ketmaydi, bola jonimga rahmi keladi..."* [Аъзам А. 2013:17]. Keltirilgan parchada bolalik neligini bilmay yashayotgan bolalarning og'ir mehnat qilishdagi iztiroblari aks etgan bo'lsa, boshqa tomondan bu mehnat orqali bolaning ham jismoniy, ham ma'naviy tomondan o'sib borishi tasvirlangan. Shunday og'ir mehnat bilan kitob o'qishga ham ruju qo'ygan bolaga otasi hazil aralash dakki beradi: *"Oqshom yarmida tepamga kelib: Bo'ldi qil-e, valad! Ko'r bo'lguncha o'qiysanmi! deb mehr aralash so'kib, kerosinchiroqni puflab o'chirib ketadigan otam, mening qorong'ida qor bosgan tundra o'rmonidan beshavqat toqqa qarab yo'l bosib, hech qachon unaqa ovloqqa, hatto yaqinimizdagi G'ubdinga ham tashlab kelmaslikka ont ichib, ichgan ontimdan o'zimning ko'zim yoshlanib borayotganimni bilmaydilar-da!"* [Аъзам А. 2013:21]. Parchada otaning bolaga mehr aralash so'kishi aslida otaning g'amxo'rlikini ko'rsatadi.

"Ey, kun tagida kun ko'rmagan bolalik-ey!" – deydi adib. Bu jumla oltmish yoshni qoralagan odamning bolaligiga nisbatan ichki faryodini ko'rsatibgina qolmay, muallif bolaligining og'riq to'la yillarini aks ettiradi. Qissada mehnatga majbur qilingan, ammo orzudan voz kechmagan bir avlod ruhiyati o'z aksini topadi.

Yozuvchi Nazar Eshonqul A.A'zam ijodi va uning "Quroq" qissasi haqida salmoqli fikrlarini bildiradi: *"Biz qissada hayotning eng zavqli, eng go'zal damlari – bolalik damlarining ajib manzarasiga duch kelamiz. Bu xotiralar hayot ko'rparasining eng go'zal quroqlari bilan bezangan. Bu quroqlar – xotiralar Ahmad akaga kasallikni yengishga, payt poylayotgan ajalni haydashga kuch va madad bergan: ularni unutib, insoniylik, mehr-muruvvat, hayotning qaynoq voqealari, hangomalari to'shalib turgan pallalarga qaytargan. Qissadagi eshak bilan bog'liq har bir quroq-hangoma orqali biz inson hayotining turli vaziyatlariga, holatlariga duch kelamiz. Qanday vaziyat bo'lmasin, u baribir hayotga, insonga tegishli, inson qadr-qimmatiga tegishli bo'lib chiqadi. Shu sababli qissadagi har bir xotira-quroqda Ahmad akaning nafasivairodasi, hayot va odamlar haqidagi xulosasi mavjud"* [Эшонқул

Voqealar rivojida, ayniqsa, eshak obrazi asosiy o'rinni egallaydi. Qissa boshlanishidan oxiriga qadar bu obraz orqali xotiralar yodga olinadi. Shahar hayotiga aralashib kirgan eshak, “kutilmagan mehmon” sifatida o'tmishni bugunga olib keladi: *“Men shaharda, nafaqaga chiqib, endi butun ermagi qog'oz qoralash bilan kitob mutolaasi bolgan odam, bu esa hu chang bosgan qishloqda qolib ketgan bir eshak. To'rt oyoqlab kelib turibdi, paqqos!”*[Аъзам А. 2013:15]. Eshak obrazining shaharga (xonaga) kirib kelishi mutlaqo real bo'lmagan, g'ayrioddiy holat. Lekin u orqali G'aziradan, hamqishloqlaridan uzilgan ziyoli odam, eskilik va yangilik o'rtasidagi to'qnashuv kabi masalalar kinoyali tarzda ochib beriladi.

Bir tomondan qissada eshak obrazining borligi, adib va eshakning suhbat, adibning unga nasihat qilishi kulgulidek tuyulsa-da, boshqa tomondan yozuvchi uslubining o'ziga xosligini ko'rsatadi. Adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev A.A'zam ijodi haqida mulohaza yuritarkan, eng to'g'ri, xolis fikrni bildiradi: *“Ahmad A'zam asarlarida odatdagiday boshi va oxiri bor voqealar, sabab va oqibat doirasida harakatlanadigan qahramonlar tasvirlanmaydi. Bir qarashda ijtimoiy salmoqdan mahrum mayda tafsilotlarning adoqsiz silsilasi aks etganday tuyulguvchi bu asarlarni tushunish oson kechmaydi. Chunki bu tafsilotlar zamiridagi ma'noni o'qirmanning o'zi topishi kerak bo'ladi”*[Йўлдошев 2018:348]. A.A'zam qahramonlari o'z hayotini, atrofdagilarning hayotini, faoliyatini, tahlil etadi, ularga kinoyaviy-tanqidiy munosabatini bildiradi. Adib asarlarida o'zi bilan o'zi gaplashayotgan, o'zi bilan o'zi kurashayotgan, o'zligini izlayotgan kishilarni tasvir etib, ularning ruhiy-psixologik holatini ochib berishga harakat qiladi.

Adib bolaligida qilgan o'g'riligiga iqror bo'lar ekan, *“kichik gunohidan bir uyalgan odam keyin katta gunohlardan tiyilib qolar ekan”*, deydi[Аъзам А. 2013:19]. Yoshlik yillarida judayam chanqagan vaqtida bodring palagining hidi dimog'iga uriladi. Chashma ham bir chaqirim narida, oftob tikkada, borishga esa sabri yo'q. Bodringni o'g'irlab chekkada yeb o'tirgan bolaning boshiga, uch-to'rt kunda ham bir ko'rinish bermaydigan, shu tomorqaning egasi bo'lmish Narzulla bobo keladi. *“Narzulla bobo bermagan salomimga: “Valalaykum! Bay-bay yonishini! Eshonbovo, Qipchoqariqdan ichib qo'ymang tag'in, paxtadan hamma zahar shunga tus'hadi, – deb yaktagidan bir etak bodring to'kdi oldimga, – Mang ko'krakning kuyganini yomon oladi-da. Tishlaganim qo'limda, og'zimdagi tomog'imdan o'tmaydi, qo'lga bunday laqqa tushganimga angrayib,*

betilu bezabon o'tiraverdim. Bobo yana meni otamning hurmatiga sizlaydi deng! Shuncha bodringni atay berdimi yo bilmaymi, lekin yomon uyaltirdi. Shu-shu, yuzim shuvit, qovunlari palagida to'rlab, tarvuzlari tirsillab yotadi, yonidagi yo'ldan o'tib men qaramayman!"[Аъзам А. 2013:19]. Bu parcha adib tilidan yengil, o'ynoqi, hatto kulguli tarzda hikoya qilinadi, ammo tagma'noda uyat, or, halollik singari qadriyatlar bor. Bu kichik gunohni muallif eslabgina qolmay, uni hayotiy va axloqiy burilish sifatida anglaydi.

Adib otasi haqida so'z yuritar ekan, *"Ota – bizlar uchun, eh-he, bir ulug' zot, xudo xayolning bir chekkasidago qutlug' bir, nima desam, jahoniy vahm bo'lsa, ota shunga yaqin buzrukvor siymo..."*, deydi[Аъзам А. 2013:23]. Qissada ota-bola munosabatining o'zbekona talqinini ko'rishimiz mumkin. Ota bola uchun bozordan, narxi tushirilgan do'kondan, qizil, laklangan, o'lchovi ham mos kelmaydigan boshmoq olib keladi. Bu boshmoq – otaning mehrini ifodalaydi, ammo u mehr bolaning ehtiyoj va orzulariga mos emas.

Adib qishlog'i G'aziraning so'lim manzarasi, bepoyon dalasini, unda kechgan bolaligini unutilmaydi, bolaligining eng shirin xotiralari ham aynan u bilan bog'liq. Tug'ilgan tuprog'iga endi u mehmon, uzoqdan boradi, yaqinlasholmay qaytadi. Sinf dosh jo'ralari ham unga *"Qishloqdan toza chiqib ketibsan-ku"*, deb ta'na qilishadi[Аъзам А. 2013:16]. *"Ulg'ayishim bilanoq G'azira meni bag'ridan chiqarib yuborgan. Yeklamdan itarib, ketyapsanmi, bor, o'sha yoqlarda kuningni ko'r, degan. Albatta, ona qishloq, tug'ilgan tuproq degan gaplar bor, lekin bular bola paytimda qolib ketgan, hozir bir narsa yozsam tashbeh qilaman, xolos, borganimda ham o'lan to'shagim beparvo, xolos, yaqin qarindosh, qolgan yoru birodarlarim ochiq chehra bilan kutib oladi"*[Аъзам А. 2013:31]. Adibning qishlog'iga begonaligini bildiragan muhim sahna hashar hisoblanadi. U qishloqdoshlariga qo'shilish uchun hasharda qatnashadi. Ammo uning kelganini hech kim xursandchilik bilan qabul qilmaydi. Adibning bergan salomiga ular sovuqqina alik olishadi va suhbat ham rasmiy shaklda bo'ladi. Bu davrada u o'zini juda noqulay his qiladi. *"Hasharchilar orasiga borib qo'shilgan bo'lsam ham u tomonida ular qimirlab turgan ko'rinmas devorning bu tomonida o'tolmay qolaverdim, hech birovining chehrasi ochilmadi, hammasi u-bu g'uldirab, ko'zini olib qochdi, to'g'ri qaraganining nigohi ham yonboshimdan o'tib ketdi. Hech birovi yukimizning yarmini ko'taradigan keldi deb xursand bo'lmadi"*[Аъзам А. 2013:31]. Tashqaridan qaraganda uni hech kim yomon ko'rmaydi, lekin qabul ham qilishmaydi. Bu odamlar orasida yurgan odamning yolg'izligini

hamda yaqinlik orasidagi begonalikni ko'rsatadi.

Xulosa

A.A'zamning “Quroq” qissasi avtobiografik xarakterda bo'lib, har bir o'qirmanni olis bolalik xotiralariga yetaklaydi. Ayniqsa, qissada tasvirlangan bolalarning hayoti, turli-tuman yumushlari va davr voqeligi kishini hech ham taajjubga solmaydi, aksincha muallif yashagan o'sha paytdagi Samarqand hayotini ich-ichidan his qilishga imkon beradi. Qolaversa, turli ramzlar orqali hayotning ma'nosi, o'zlikni anglash, jamiyatda o'z-o'zini izlayotgan insonning ruhiy-ma'naviy holati istifoda etilganini ko'ramiz. Yozuvchi uslubiga xos ramziylik, ifoda yo'sini, shevaga xos so'zlardan unumli foydalangani asarni yanada hayotiy chiqishiga asos bo'lgan. Asarga tanlangan sarlavhadan tortib, obrazlar, detallargacha ramzlashib, o'zida katta ma'no tashiydi.

Adabiyotlar

- Аҳмад Аъзам. 2013. Қуроқ. “Ёшлик” №1
- Quronov D. 2018. Adabiyot nazariyasi asoslari. [Matn] – Toshkent: Akademnashr.
- С.Мели. 2020. Сўзу сўз. “Адафиёт фалсафаси”га чизгилар. – Тошкент “Шарқ”.
- Қуронов Д. З.Мамажонов. М.Шералиева. 2013. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr.
- Йўлдошев Қ. 2019. Очқич сўз. Монография. – Тошкент: Тафаккур нашриёти.
- Н.Эшонқул. 2022. Китоб бандаси (мақолалар, эсселар). – Тошкент: Akademnashr.
- Қ.Йўлдошев. 2018. Сўз ёлқини/ Руҳият жилолари (Аҳмад Аъзам). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.